SHARQONA YANGI YIL MUNOSIB NISHONLANDI

Xajiboyev Izzatbek G‘afur o‘g‘li,
Po‘rsiboyeva Elmira Omonboy qizi,
Sheripbayeva Poshshajon Mavlonbekovna
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘quvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharqona yangi yil hisoblangan Navro‘z bayrami munosabati bilan Xorazm viloyati yuridik texnikumida o‘tkazilgan tadbir haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bayram, Navro‘z, tadbir, an’ana, tabiat, yangilanish, marosim, sumalak, milliy taomlar.

Annotation: This article talks about the event held at the Khorezm Region Legal Technical College in connection with Navruz, which is considered the Eastern New Year.

Keywords: holiday, Navruz, event, tradition, nature, renewal, ritual, sumalak, national dishes.

Ma’lumki, mamlakatimizda xalqaro xotin-qizlar kuni, bolalar kuni, mustaqillik bayrami, yangi yil kabi bayramlarni har yili munosib tarzda, ko‘tarinki kayfiyatda nishonlash odat tusiga kirgan. Darhaqiqat, tinch va osoyishta yurtga to‘y-u tantana va bayramlar yarashadi. Ushbu bayramlar orasida esa qadimiy va navqiron, milliyligimizni o‘zida aks ettiradigan sharqon yangi yil, ya’ni navro‘z bayrami alohida ajralib turadi. Nazdimizda, ushbu bayramni yoqtirmaydigan o‘zbek topilmasa kerak. Bundan tashqari Navro‘z bayrami fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor faslida, tabiat qayta uyg‘ona boshlagan davrda nishonlanadi. Shu o‘rinda, ushbu bayran haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tishni joiz deb topdik.

Navro‘z sharq xalqlari orasida bir necha ming yillardan buyon yashab kelmoqda. Navro‘z biron-bir sanani nishonlash uchungina bayram qilinadigan hodisa hisoblanmaydi. U tabiatning o‘zidan kelib chiqqan, kun-u tun tenglashganidan so‘ng kunlarning uzayishi, uzluksiz mehnat arafasidagi bayramdir. Uzoq qishdan so‘ng ko‘kdagi quyoshning yuz ko‘rsatishi, qirda maysa-giyohlarning nish urib chiqishi xalqimiz uchun haqiqiy shodiyonaga aylangan. Nega deganda, o‘tgan yilgi yig‘ilgan g‘alla ham, oziq-ovqatlar ham sob bo‘lay degan, ilikuzdi paytlarda yana ona tabiatning o‘zi mehr-muruvvat ko‘rsatib, yorug‘ kunlardan darak bergan. Shu kunlargacha eson-omon yetib kelishgan qariyalarning ham tomirlarida qaytadan

g‘ayrat jo‘sh urgan. Nav – yangi, ro‘z – kun, ya’ni yangi kun deb atalishi ham bejiz emas.

Xabaringiz bor, mamlakatimizda yurist kadrlarni yana-da ko‘paytirish maqsadida respublikamizning 14 ta hududida 1 tadan Adliya vazirligiga qarashli professional ta’lim muassasalari, ya’ni yuridik texnikumlar tashkil qilingan. Ular orasida Xorazm viloyati yuridik texnikumining o‘ziga xos o‘rni bor. Xorazm viloyati yuridik texnikumida o‘quvchilarga huquqiy bilim berish bilan birgalikda ularning ma’naviyatini yuksaltirish, komil insonlar qilib tarbiyalash mqsadida turli xil ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham muntazam ravishda o‘tkazib boriladi. Ushbu so‘zimizning isboti sifatida esa mazkur maqolamizda Xorazm viloyati yuridik texnikumida munosib tarzda nishonlangan sharqona yangi yil, ya’ni Navro‘z bayrami tadbiriga kengroq to‘xtalmoqchimiz.

Bahor fasli kirib kelishi bilanoq texnikum jamoasi xush kayfiyat ila milliy bayramimiz bo‘lmish Navro‘z bayramiga tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborishadi. Joriy yilning 17-dekabr kuni ertalabdan katta doshqozonda sumalak pishirish jarayoni qizg‘in boshlanib ketdi. Texnikumning 1-2-bosqich o‘quvchilari esa katta ishtiyoq



bilan ochiq osmon ostidagi sayl maydonida o‘zlari uchun ajratilgan joyda stol bezashga kirishib ketdilar. Barcha bahoriy xush kayfiyatda, egnilarida esa milliy libos. Umuman olganda, Navro‘zni shu tarzda nishonlash texnikum jamoasi uchun an’anaga aylangan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Har kuning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!” shiori ostida o‘tkazilgan bayram tadbirida texnikumning 12 ta guruhi arqon tortish, stol tennis, tosh ko‘tarish, shaxmat, shashka, milliy taomlar namoyishi, guruhlar chiqishi, huquqiy bilimlar bellashuvi kabi tanlovlarda o‘zaro do‘stona raqobat asosida bellashishdi.

Navro‘z sayli nihoyasida ushbu tanlovlarda faol qatnashib, faxrli o‘rinlarni egallagan o‘quvchilarga va guruhi bilan faol qatnashgan guruh rahbarlariga texnikumning darajali diplomlari, esdalik sovg‘alari hamda tashakkurnomalar topshirildi. Har doimgidek bu safargi Navro‘z sayli ham ishtirokchilarning qalbiga





o‘zgacha bahoriy tuyg‘ular va ajoyib xotiralar bilan muhrlandi. Shuningdek, eng muhimi, texnikum o‘quvchilarining milliy an’analarimizga, milliy o‘yinlar-u kuy-qo‘shiqlarimizga, milliy taomlarimizga bo‘lgan mehri yanada oshdi. Bundan tashqari Navro‘z bayramini nishonlash asnosida nafaqat, texnikum jamoasi, qolaversa, o‘quvchilar o‘rtasidagi do‘stlik, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat tuyg‘ulari yanada mustahkamlandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Navro‘z xalqimizga xos bo‘lgan milliy urf-odat va an’analarni o‘zida mujassamlashtirgani bilan ham go‘zal. Shuning uchun ham ishonch bilan ayta olamizki, ushbu bayram ajdodlardan avlodlarga o‘tib, yana uzoq yillar davomida keng nishonlanadi.